

## MAFKURAVIY MAKON TUSHUNCHASINING MAZMUN – MOHIYATI

**Sh. Mirahmedova**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
mustaqil tadqiqotchi Bo'stonliq tumani Madaniyat bo'limi bosh mutaxassisi

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda mamlakatimiz inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat qurish sari bormoqda. Shu jihatdan globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi olamda ma'naviy hayotimizdagи o'zgarishlar dinamikasining rivojlanish darajasi, unga xo's qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** inson, ma'naviy makon, ma'naviyat, mafkura.

Mafkura - bu muayyan bir maqsadga yo'naltirilgan, o'zida xalq manfaatini aks ettirgan g'oyalar tizimi ekan, u jamiyatning ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy, ham huquqiy, ham madaniy hayotiga asosiy tayanch va kuch sifatida xizmat qiluvchi omildir. U ijtimoiy borliqning ya'ni, keng ma'noda jamiyat hayotining ma'naviy siyosiy in'ikosidir. Uning shaxs ongida aks etishi va shaxs tomonidan anglanib, bir butun tizim holiga keltirilishi (masalan, milliy mafkuraning) bilan jamiyat hayotida ruxiy tayanch bulib xizmat qiladi. Chunki mafkura jamiyat hayotida inson ongi orqali uning amaliy hatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. Bugun jamiyatimizda fuqarolarning to'liq erkinligini ta'minlash -mamlakatimizda fuqarolarga o'z iqtidorini ko'rsata olish va orzularini ro'yobga chiqarish imkon beradigan tizim shakllanmoqda. Amaliyotga tatbiq etilgan qonun ustuvorligi tamoyili fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani tufayli jamiyatimizda ochiqlik va erkinlik muhiti tobora kuchayib bormoqda. Fuqarolarimizning tashabbus ko'rsatib, insonlarning dardu tashvishlarini hal qilish uchun davlat idoralari bilan hamkorlikda ishlashining takomillashuvchi fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Tarix shundan dalolat beradiki, har qanday jamiyatni yuksalishi muayyan bir g'oya, umumxalq mafkuraga asoslanadi. Bu mafkura jamiyat orzu-istikclarini o'zida mujassamlashtirganligi tufayli xalqni birlashtirish kuchiga ega bo'ladi. Demak, har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, birlik, hamjihatlik zarurdir.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlashning mavkuraviy omillaridan biri - mafkuraviy immunitetdir.

Muhtaram Prezidentimiz "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan ezgu g'oyaning bugungi taraqqiyot davrining ustivor shiori ekanini alohida ta'kidlab, ushbu g'oyani hayotga to'liq tadbiq qilinishida xalq birligi va umumiyl manffat yo'lida ishonch bilan fidoiylik ko'rsata olishlari uchun barcha imkoniyatlarni va sharoitlarni yaratishimiz zarur ekanligini o'qtiradi.

Makon - bu bilimning turli bo'limlarida qo'llaniladigan (to'g'ridan-to'g'ri yoki iboralarda) tushunchadir. Makon falsafiy tushunchadir.

Makon - uning elementlarining xossalari aksiomatikasi bilan aniqlangan tuzilishga ega bo'lgan matematik to'plam (masalan, geometriyadagi nuqtalar, chiziqli algebradagi vektorlar, ehtimollar nazariyasidagi hodisalar va boshqalar).

Shuningdek, makonni biror narsa mos keladigan joy, shuningdek, ob'ektlar orasidagi masofa deb ham qarash mumkin. Matematika uni turli ob'ektlar va sub'ektlar amalga oshiriladigan muhit sifatida belgilaydi.

Makon - bu bizning kundalik dunyomizning uch o'lchovli maydoni. Bu jismoniy jismlarning joylashuvi aniqlanadigan makon, unda mexanik harakat sodir bo'ladi, turli jismoniy jismlar va jismlarning geometrik harakati.

Makon va zamon - borliqning umumiyl yashash shakllari, makon dunyoniga tashkil etuvchi ob'ektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt dunyoda sodir bo'luvchi xodisa va jarayonlarning ketma-ket ro'y berishi va davomiyligini ifodalaydi. Makon va vaqtning tabiatini hamda mohiyati haqida qadimdan faylasuflar xilma-xil nuqtai nazarni ilgari surgan[1].

Makonning turli xil shakllari mavjud bo'lib, ularidan biri ma'naviy makon hisoblanadi. Makon - materianing mavjudligi shakli bo'lib, uning hajmini, tuzilishini, moddiy ob'ektlar ichidagi elementlarning o'zaro ta'sirini va moddiy ob'ektlarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini tavsiflaydi.

«Ma'naviyat»ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyorilari o'rtasida qizg'in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma'naviyatning ko'p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy -botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Ularda ma'naviyat, uning ma'no-mazmuni, hayotimizdag'i o'rni va ahamiyati xaqida fikrlar bildirilmoqda. Lekin aksariyat hollarda ma'naviyat o'zi nima, degan savolga aniq va lo'nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba'zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirishmoqda. To'g'ri, "Ma'naviyat"

tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no - mazmunini mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi muallif o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berib kelayotganliklarini ko‘ramiz. Unga ham bir tabiiy hol sifatida qaramoq lozim. Bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarda, ta’riflarda har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohida tarzi o‘z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, keyingi yillarda mazkur mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda "Ma’naviyat" tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab "Ma’naviyat" tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir.[2] Aslida ma’naviyat - insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson - tabiatning, barcha mavjudotning gultoji geñnnraHga yHHHr ymöy xHcnarn, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish - ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviy makon - insonning ichki dunyosidagi muvaffaqiyat va dunyoqarash vositalari asosida inson va uning atrofidagi olamning ko‘p qirrali o‘zaro o‘zaro ta’siri, bir so‘z, harakat va niyatda amalga oshiriladigan, hamma narsaning manfaatini ko‘zlashdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati ,T.: G‘ofur G‘ulom, 2013y. 146-
2. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
3. Mamashokirov S, Tog‘aev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari -T.: Ma’naviyat, 2007.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2003y., 5-b.
5. Nazarov Q. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T.: Yangi asr avlod, 2001.
6. O‘rayev J.N. Mafkuraviy immunitet. - T.: «Ma’naviyat», 2001.